

VOYAGA YETMAGANLARNING JINSIY DAXLSIZLIGIGA QARSHI JINOYAT SODIR ETGAN JINOYATCHI SHAXSINING KRIMINOLOGIK TASNIFI



Jumanioyozov Nodirbek G'iyos o'g'li

O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada voyaga yetmaganlarning jinsiy daxlsizligiga qarshi jinoyat sodir etgan jinoyatchi shaxsining kriminologik tasnifi, jinoyatga sharoit yaratuvchi omillar va jinsiy daxlsizlikka tajovuz qiluvchi jinoyatchining portreti ishlab chiqilgan hamda 16 yoshga to'lmagan shaxs bilan jinsiy aloqada bo'lish jinoyatiga qarshi kurashning milliy va xorijiy tajribalari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: jinsiy daxlsizlik, 16 yoshga to'lmagan shaxs, jinsiy aloqada bo'lish, daxlsizlik, pedofiliya, jismoniy zo'ravon, jinsiy erkinlik.

КРИМИНОЛОГИЧЕСКАЯ КЛАССИФИКАЦИЯ ЛИЧНОСТИ ПРЕСТУПНИКА, СОВЕРШИВШЕГО ПРЕСТУПЛЕНИЕ ПРОТИВ ПОЛОВОЙ НЕПРИКОСНОВЕННОСТИ НЕСОВЕРШЕННОЛЕТНИХ

Аннотация. В статье разработана криминологическая характеристика личности преступника, совершившего преступления против половой неприкосновенности несовершеннолетних, рассмотрены факторы, способствующие совершению таких преступлений, и представлен портрет преступника, посягающего на половую неприкосновенность. Проведен анализ национального и зарубежного опыта борьбы с преступлением в виде полового сношения с лицом, не достигшим 16-летнего возраста.

Ключевые слова: сексуальная неприкосновенность, лицо, не достигшее 16-летнего возраста, секс, неприкосновенность, педофилия, физическое насилие, сексуальная свобода.

CRIMINOLOGICAL CLASSIFICATION OF A CRIMINAL PERSON WHO COMMITTED CRIMES AGAINST SEXUAL IMMUNITY OF MINORS

Abstract. This article develops a criminological classification of the criminal personality of a person who commits crimes against the sexual integrity of minors, factors that create the conditions for the crime, and a portrait of a criminal who violates sexual integrity, and analyzes national and foreign experiences in combating the crime of sexual intercourse with a person under the age of 16.

Keywords: sexual inviolability, person under 16 years of age, sexual intercourse, inviolability, pedophilia, physical abuser, sexual freedom.

Jinoyatchilik ijtimoiy hodisa sifatida o'rganilganida jinoyatchi shaxsi va uning o'ziga xos xususiyatlari ham o'rganiladi [1]. Modomiki, bolalarning jinsiy daxlsizligiga qarshi jinoyat sodir etgan shaxslarning ijtimoiy-xavfli qilmishlari, kriminologik belgilari, psixologik xususiyatlari, g'ayriaxloqiy qarashlarini tadqiq etish orqali ularga xos bo'lgan barcha xususiyatlarni o'rganish mumkin.

Bolalarning jinsiy daxlsizligiga qarshi jinoyatlar bilan bog'liq muammolar kriminologiya, psixologiya va jinoyat huquqi fanida ham g'oyatda bahsli bo'lib, turli soha mutaxassislari tomonidan jinoyatchi shaxsiga nisbatan turlicha fikrlar bildirilgan. Zero, bunday muammolar, har bir millat mentaliteti, o'sha jamiyatda ustuvor bo'lgan yurish-turish qoidalari, urf-odatlar va an'analar doirasida turli tadqiqotlarning predmeti bo'lib kelgan [2].

Yosh bolalarning jinsiy daxlsizligiga qarshi jinoyat sodir etgan shaxs deganda, albatta, hayolimizda “pedofil” tipi namoyon bo'ladi.

Pedofiliya – kattalar yoki o'smirlarning balog'atga yetmagan bolalarga nisbatan asosiy yoki eksklyuziv jinsiy moyillikni boshdan kechiruvchi psixiatrik kasallik. Qizlarda balog'atga yetish jarayoni, odatda, 10 yoki 11 yoshda, o'g'il bolalarda esa 11 yoki 12 yoshda boshlansa-da [3], pedofiliya mezonlari balog'atga yetishning chegaralanish nuqtasini 13 yoshgacha uzaytiradi. “Pedofiliyaga moyil” (pedofil) deya nomlanish uchun shaxs, kamida, 16 yoshda va balog'atga yetmagan boladan kamida besh yosh katta bo'lishi kerak.

“Pedofiliya” – kasallik, uni deyarli davolab bo'lmaydi. Agar kishining o'zida tuzalish uchun kuchli xohish bo'lsa, uni bosqichma-bosqich mutaxassislar ko'magida davolash mumkin. Ko'pincha ular o'z tuzog'iga ota-ona nazoratisiz qolgan bolalarni ilintirishadi.

Jinsiy zo'ravonlikka moyil shaxslar o'z tengdoshlari, ya'ni kattalar bilan chiqisha olmaydigan, ular oldida ojiz yoki xohish-istaklarini ochiq ayta olmaydigan, aksar hollarda odamovi va qo'rqqoq kimsalar. Shu sababdan ular o'zidan ham jismonan, ham aqlan kichik, kuchsiz bo'lgan bolalarga tahdid qiladi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, avvalo, kishining bunday bo'lib qolishiga asosiy sabab – oiladagi nosog'lom muhit. Shuningdek, 13–14 yoshgacha bo'lgan davrda bosh miyasidan jarohat olganlar ham ba'zan pedofil bo'lib qolishi mumkin. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, pedofillarning 90 foizidan ortig'i erkak jinsiga mansub.

Pedofil deganda uch toifa shaxslar tushuniladi: birinchisi, boshidanoq jinsiy sherik sifatida bolalarni afzal ko'radiganlar, ikkinchisi, dastlab kattalarga ko'ngli moyil bo'lgan, lekin kattalar bilan o'zaro munosabatlardagi omadsizliklar natijasida diqqatini bolalarga qaratganlar, uchinchisi, bu nafaqat boshqa odamlarning bolalari, balki o'z farzandlari, qarindoshlari bilan ham jinsiy aloqada bo'lishdan tap tortmaydigan manqurtlar.

Pedofiliya tashxisi psixiatrik tekshiruvlardan so'ng, psixiatr shifokor tomonidan qo'yiladi. Psixolog Madina Miytanning fikricha, pedofillar

ko'pincha o'zlarini oshkor qiladi, lekin ularning ko'pchiligi hech qachon o'z fantaziyalarini amalga oshirishga jur'at eta olmaydilar. Yashirin pedofillar ham mavjud. Psixologik surishtiruvlarga ko'ra, haqiqatan ham ko'plab pedofillar bolaligida o'zlari boshqa odamlar tomonidan jinsiy harakatlar qurboni bo'lishgan: odobsiz teginishlar, uzoq vaqt tushunarsiz jinsiy harakatlar, erotik “o'yinlar” va zo'rlanish.

Pedofillik xulq-atvori uchun sudlanganlar orasida taxminan 30 foizi bolaligidan shunday qurbonlik tajribasini olishga mahkum bo'lganlar. Pedofillar orasida aqliy zaiflik tashxisi qo'yilganlari kamroq (15 foiz atrofida). Bunday odam o'ziga yaqin hissiy yetuklik darajasiga ega bo'lgan sherikni izlashga intiladi. Bunday sherik bilan u o'zini qulay va ishonchli his qiladi, bunda ko'pincha qurbon bolalar bo'ladi. Atrof-muhit, ta'lim va erta nomaqbul jinsiy taassurotlar ham pedofillikni shakllantirishga ta'sir qiladi. Ta'lim sifati past davlatlarda bu ko'rsatkich baland hisoblanadi. Albatta, doimiy bunaqa xabarlarining psixik nosog'lom odamlarga ta'siri kuchliroq bo'ladi. Shuning uchun xabar tarqatayotganda doimo e'tiborli bo'lish kerak. Oramizda “ular” borligini unutmasligimiz kerak.

Psixologlarning ta'kidlashicha, turmushi buzilgan ba'zi ayollar qayta turmush quradi va hali yaxshi sinalmagan, lekin o'ta mehribon ko'rinayotgan o'gay otaga bolalarini ishonib qoldiradi. Pedofil uchun esa bu ayni muddao. Shov-shuv bo'lib, jamiyatni larzaga keltirgan ko'p jinoyatlarda jinoyatchi aynan o'gay ota yoki ona bo'lib chiqayotgani fikrimizning isbotidir.

Faqat o'zbekligimizga borib yoki xalq g'azabidan qo'rqib, jinoyat ishi malakalanayotganda pedofiliya alomatlari har doim ham oshkor etilmaydi.

Klassik ruhiy xastalar (maniakal-depressiv psixoz, shizofreniya)dagi barcha holatlarning atigi 4%da bunday pedofil xatti-harakatlar kuzatilgan. Ya'ni, bu tashqaridan hamma uchun ko'rinib turgan ruhiy kasallar “pedofil bo'lishi mumkin” degan shubha, xavotir bilan gumonlanib hammasidan birday qo'rqish shart, degani emas. Kamdan-kam hollarda, qo'zg'atuvchi nevrologik kasallik (masalan, erta demensiya) yoki miya shikastlanishida pedofillik holatlar

kuzatilishi mumkin. Qizig'i shundaki, pedofil-larning aksariyatini erkaklar tashkil qiladi. Ayollarda pedofiliya holatlari hali ham juda kam o'rganilgan.

Pedofiliya har doim ham alohida kasallik bo'lmaydi. Ba'zi hollarda shizofreniya, psixopatiya, isteriya yoki buzuvchi tarbiyaning ko'rinishlari bilan birga namoyon bo'ladi. Odatda, bu holatda psixiatrlar xarakter patologiyasi haqida gapirishadi, chunki aksariyat pedofillar o'zlarining harakatlari g'ayritabiiy, halokatli va bolaga tuzatib bo'lmaydigan ma'naviy shikast yetkazishi mumkinligini yaxshi bilishadi.

Biroq, u qamalgan bilan, kastratsiya qilinsa ham, jamiyat pedofillardan tozalanib qolmaydi. Xalqaro tibbiyot klassifikatsiyasiga ko'ra kasallik hisoblanuvchi pedofiliya yo'q bo'lmaydi. Uni tagtomiri bilan yo'q qilish uchun esa hukumat otionalarni mardikorlik tamg'asidan qutqarib, munosib ish berishi, bolalar begonalar qo'lida emas, oila quchog'ida katta bo'lishi kerak. Gormon terapiyasi bugungi kunda pedofiliya uchun eng istiqbolli davolash hisoblanadi, deyishmoqda tadqiqotchilar. Ushbu preparat erkaklik gormoni bo'lgan testosteronni ishlab chiqarishni bostiradi. Hozirda bu prostata saratonini davolashda qo'llanilmoqda, ammo tadqiqotchilar sinov yakunlangach uni pedofillarda qo'llash uchun yangi yo'llarni ochishiga umid qilishmoqda [4].

Ko'pchilik olimlar bolalarga nisbatan jinsiy jinoyat sodir etgan barcha shaxslarni pedofil deyishadi, ammo bu noto'g'ri qarash bo'lib, yuqorida ta'kidlaganimizdek, pedofiliya psixik kasallik.

Jinoyatchi shaxsini tavsiflovchi eng muhim kriminologik belgilardan biri uning yoshidir. Shaxsning yosh xususiyatlari uning muhit bilan o'zaro aloqasiga, ma'naviy olamning ichki mohiyatiga, xulq-atvorida yaqqol ifodalangan ikkilanishlar va beqarorlikka sezilarli darajada ta'sir ko'rsatadi [5]. Jinoyatchi shaxsining kriminologik tahlilida, yoshga oid tavsif bilan bir qatorda, uning ma'lumot darajasi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Insonning ma'lumot darajasi uning talab, ehtiyoj va manfaatlarini, ma'naviy-axloqiy va madaniy ko'rinishlarini shakllantiradi [6].

Tadqiqot doirasida bolalarning jinsiy daxlsizligiga qarshi jinoyat sodir etgan jinoyatchi shaxslarning yoshiga oid ma'lumotlari o'rganilganida, ularning 22,3% 18–25 yoshdagi, 30,6% 25–35 yoshdagi, 19,9% 35–45 yoshdagi, 15,5% 45–55 yoshdagi hamda 11,7% 55 yoshdan yuqori bo'lganlar tashkil etdi. Ammo, shu yerda yana bir masalaga e'tibor qaratish lozim. 2000-yildan 2010-yilgacha sodir etilgan shu turdagi jinoyatlar bo'yicha yoshga doir ma'lumotlar o'rganilganda 9,3%, 2010–2016-yillarda 12,9%, 2016–2021-yillarda 18,2%, 2021–2024-yillarda esa 22,3% 18–25 yoshdagi shaxslar tomonidan sodir etilayotganligi ushbu turdagi jinoyatlar "yosharayotganligini" bildiradi. Bu esa barchamizni tashvishga solishi lozim.

Bu borada F. Toxirov yoshlarning erta jinsiy hayotga kirishishi bilan [7], Q. P. Payzullayev esa shu yoshdagi qatlamning jinsiy aloqaga kirishish ishtiyoqi balandligi bilan izohlashadi.

Fikrimizcha ham ushbu olimlar izohlari to'g'ri bo'lib, yoshlarning jismoniy va ma'naviy rivojlanishi 2000-yillarga qaraganda 4 barobar tezlashganligi, o'smirning noto'g'ri tarbiyalanishini belgilovchi shart-sharoit omillari, yoshi katta jinoyatchilarning dalolatchiligi, zo'ravonlik va qonunsizlikni ifodalovchi kitoblar va filmlar ta'siri hamda yashash, o'qish yoki ish joyidagi muhitning salbiy ta'siri kabi omillar bevosita ushbu jarayonga ta'sir qiladi. Undan tashqari, jinoyat sodir etishning yosharishi faqat jinsiy jinoyatlarga emas, boshqa turdagi jinoyatlarga ham xosdir.

Bolalarning jinsiy daxlsizligiga qarshi jinoyat sodir etgan jinoyatchilarning 60,2% ishsizlar, 29,0% ishchilar, 6,2% tadbirkorlar, 4,6% davlat organlari mansabdor shaxslari bo'lib, ishsizlarning jinoiy faolligi ijtimoiy foydali mehnat bilan shug'ullanganlarnikiga nisbatan ancha yuqori. Bunday jinoyatlarni sodir etganlar ichida davlat organlari mansabdor shaxslarining mavjudligi barchamizni qo'rquvga soladi hamda ushbu turdagi jinoyatlarning "chegaraviy latentsligi"ni oshiradi.

Jinoyatchi shaxslarning ma'lumot darajasi o'rganilganida, ularning 20% oliy, 17% o'rta maxsus, 52% o'rta, 10% esa to'liqsiz o'rta ma'lumotga ega ekanliklari aniqlandi. Ushbu toifadagi

shaxslarning jinsga oid ma'lumotlari o'rganilganda, jinoyat sodir etganlar asosan erkaklar bo'lib, ularning hissasi 96%ni tashkil etadi.

Ushbu jinoyatlarning o'ziga xos xususiyatlaridan yana biri – qarindoshlar o'rtasida sodir etilishidir. O'rganilgan jinoyat ishlarining 65%da ushbu jinoyatlar jabrlanuvchining yaqinlari, ya'ni 5% otasi, 19% o'gay otasi, 25% amakisi va to'g'asi, 5% akasi, 20% o'gay akasi hamda 21% qo'shnilar va boshqa yaqin shaxslar tomonidan sodir etilgan. Bu esa, eng avvalo, oilaviy qadriyatlarini saqlash va mustahkamlash jinsiy tarbiyasi oiladan boshlash lozimligini bildiradi. Qarindoshlar va tanish kimsalar tomonidan bolalarga nisbatan jinsiy zo'ravonlik alohida o'rganish va tahlillarni talab qiladi.

AQSHda e'lon qilingan bir hisobotga ko'ra, 5 yoshgacha bo'lgan bolalarga nisbatan jinsiy zo'ravonliklarning 48,6 foizini qarindoshlar sodir etadi. Bunday zo'ravonlikning 6–11 yosh oralig'idagi bolalarga nisbatan sodir etilgan miqdorida 42,4 foizi, 12–17 yosh oralig'idagilarga nisbatan esa 24,3 foizi qarindoshlar tomonidan amalga oshiriladi. Oilaning yoki bolaning tanishlari tomonidan sodir etilgan jinsiy zo'ravonlikning yosh toifalariga ko'ra taqsimoti esa bunday: 5 yoshgacha 48,3%, 6–11 yoshda 52,9%, 12–17 yoshlilarda esa 66%.

Bundan shunday xulosa qilish mumkinki, bolalarning jinsiy daxlsizligiga qarshi jinoyatlar sodir etgan jinoyatchi shaxslarning eng ko'p qismini o'rta ma'lumotga ega bo'lganlar, ishsizlar, yaqin qarindoshlar va yoshlar tomonidan sodir etilmoqda.

Oilaviy holatiga ko'ra, oilali jinoyatchilarning ulushi kamroqni tashkil etmoqda (27%), mazkur jinoyatni sodir etgan aksariyat shaxslar turmush qurmagan, ajrashgan yoki beva (73%). Sudlanganlik holati bo'yicha sudlanmaganlar ulushi (63%) nisbatan ko'proqni tashkil etmoqda. Sudlanuvchilarning kasbi, ish joyi tahlil qilinganda, ularning aksariyati (67%) vaqtincha ishsiz, Shuningdek, ular orasida tikuvchi, farrosh, MCHJda ish boshqaruvchi, yakka tartibdagi tadbirkorlar ham uchraydi.

Tadqiqot doirasida o'rganilgan jinoyat ishlari, yuqoridagi shaxslarning jismoniy sog'lom bo'lsa-da, lekin o'z tengdoshlariga nisbatan

ruhiy buzilishlar bir necha marotaba ko'p uchrashini ko'rsatdi. F. Toxirov va Q. P. Payzullayev tadqiqotlariga ko'ra bolalarning jinsiy daxlsizligiga qarshi jinoyatlar 90–95% holatda aqli raso shaxslar tomonidan sodir etilgan bo'lsa-da, shundan 75%dan ortig'ida psixik anomaliya (chetga og'ish)lar mavjud.

Bunday psixik anomaliyaga ega bo'lgan shaxslar ichida oldin sudlanganlar – 25,9%, jinsiy jinoyat sodir etishga suiqasd qilganlar – 50%ni tashkil qilmoqda.

Tadqiqot doirasida o'rganilayotgan jinoyatlarning retsidivligi esa psixik anomaliyaga ega bo'lgan shaxslar orasida 47,7%, psixik sog'lom shaxslar orasida 15,7% tashkil qilmoqda. Bu esa shaxs psixikasining anomaliyasi, ya'ni me'yoridan chetga chiqishi bolalarning jinsiy daxlsizligiga tajovuz qiluvchi jinoyatlar uchun kuchli kriminogen omil ekanligidan darak beradi.

Olimlarning ma'lumotlariga ko'ra, bosh miya organik kasalligiga duchor bo'lgan jinoyatchilar – 56% tashkil qilib, bunday shaxslarning 18,6% bolalarning nomusiga tegishga suiqasd qilish, 54,2% bolalarning nomusiga tegish, 11% esa 16 yoshga to'lmagan shaxsga nisbatan uyatsiz-buzuq harakatlar qilish jinoyatini sodir etishgan. O'rganilgan jinoyat ishlari natijalarida ham jinoyat sodir etgan shaxslarning 35% ruhiy va jismoniy nuqsonlarga ega bo'lgan, 2,5% esa epilepsiya kasalligiga duchor bo'lishgan.

A.G.Zakirovaning fikriga ko'ra, voyaga yetmagan shaxslarning ruhiyati jinoyat sodir etilishi uchun "subyektiv "katalizator" hisoblanadi [8]. B.A.Umirzakov ham ushbu fikrlarga qo'shilib, "jinsiy jinoyatlar qurboni bo'lgan bolalar voyaga yetganidan so'ng boshqa bolalar uchun xavfli bo'lib qoladilar" [9], deb ta'kidlaydi.

AQSHning Harvard universiteti tomonidan e'lon qilingan statistikaga ko'ra, jinsiy zo'ravonlik jinoyatlari aybdorlarining 90% ga nisbatan yoshligida shunday zo'ravonlik harakatlari sodir etilgan. Tadqiqot doirasida JIEMlarida jazoni o'tayotgan jinsiy jinoyat sodir etgan mahkumlar orasida o'tkazilgan so'rovnoma ko'ra ularning 63% yoshligida jinsiy zo'ravonlik qurboni bo'lishganligini ta'kidlashgan va 31% yoshlikda qilingan tajovuzlar tufayli hali ham o'ch olish tahdidi bilan yashashayotganligini bildirishgan.

B. A. Umirzakovning ta'kidlashicha, bunday shaxslar yon atrofimizda bo'lib, qarindoshimiz, qo'shnimiz, hamkasbimiz yoki boshqa yaqin kishimiz bo'lishi mumkin. Q. R. Abdurasulova ham bu fikrlarga qo'shilib, bunday jinoyatlarni o'ziga to'q bo'lgan hamda oliy ma'lumotli shaxslar sodir etishini ta'kidlaydi [10].

Yuqoridagi olimlarning fikrlariga qo'shilgan holda aytish mumkinki, ushbu jinoyatlarda tajovuzkor shaxsning ma'lumot darajasining pastligi yoki ishsizligi ahamiyatga ega emas, asosiysi uning shu davrdagi his-tuyg'ulari va emotsional holati.

Jinoyat sodir etgan shaxslarning hissiyot va g'arazli niyatlari hayotdagi qiyinchiliklar, ruhiy o'zgarishlar yoki buzilishlar natijasidir [11]. Tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, bunday toifadagi shaxslarda rahm-shafqatning kamligi bolalarga nisbatan rahmsiz munosabatda bo'lishga hamda shaxsga nisbatan turli darajada tan jarohati yetkazishga sabab bo'lishi mumkin. Achinarli tomoni shundaki, bunday toifadagi shaxslar tomonidan jinsiy jinoyatlar bilan birga, qotillik jinoyatlari sodir etilishi holatlari amaliyotda ko'p uchramoqda. Misol uchun, Toshkent viloyatida sodir bo'lgan 11 yoshli Muslimaning pedofil tomonidan o'ldirilishi, Qashqadaryo viloyatida voyaga yetmagan o'g'il jiyanini zo'rlagan erkak, qariyb 50 yoshga yaqinlashib qolgan shaxsning 8 yoshli jiyaniga zo'ravonlik qilib, jinoyatni yashirish uchun o'ldirilgani va shunga o'xshash yana yuzlab holatlar dilimizni xira qiladi.

Tahlillarning ko'rsatishicha, bolalarning jinsiy daxlsizligiga qarshi jinoyat sodir etgan shaxslarning ko'pchiligi yoshligidan spirtli ichimlik iste'mol qilishni o'rgangan va uning ta'sirida turli g'ayriijtimoiy xatti-harakatlar sodir etishgan. Bundan shunday xulosa qilish mumkinki, hayotda ham aynan ushbu toifadagi shaxslarda boshqa jinoyatlar ham sodir etishga moyillik yuqori bo'lib, ular tomonidan sodir etilgan jinoyatlar tarkibida shaxsning hayoti va sog'lig'iga qarshi turli darajadagi tan jarohati yetkazish holatlari ko'p uchraydi.

Bolalarning jinsiy daxlsizligiga qarshi jinoyat sodir etgan shaxslar tajovuzkor xulq-atvori bilan muammosini jinoiy yo'l orqali hal etishga harakat qiladilar. Sud-tergov materiallari va ayblov xulosalari tahlili asosida aytish mumkinki, ushbu toifadagi shaxslar jinoiy qilmishlarini 30,4% o'ldirish orqali qo'rqitib, 34,8% jismoniy kuch ishlatib, 25,0% sharmanda qilish orqali qo'rqitib, 2,8% esa yaqin qarindoshlarini o'ldirish orqali qo'rqitib sodir etishgan.

Yuqoridagilardan shunday xulosa qilish mumkinki, bolalarning jinsiy daxlsizligiga qarshi jinoyat sodir etgan shaxslarning aksariyati nosog'lom turmush-tarzida hayot kechiruvchi ishli, ma'lumoti yuqori bo'lgan, ma'naviyati rivojlangan, ammo atrofdagilar bilan munosabati samimiy bo'lmagan, salbiy xulq-atvoriga ega toifadagi shaxslar ekanligini ko'rish mumkin.

Foydalanilgan manbalar

1. Ismolova G. Oila ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni ta'minlovchi omil sifatida // Ijtimoiy fikr, 2013. – №1 (61). – B. 134.
2. Shoumarov G'.B. Oila va muhabbat. – T., 1996. – B. 6.
3. Kail, R.V. Human Development: A Lifespan View, 5th, Cengage Learning, 2010 — 296 bet. ISBN978-0495600374. 2016-yil 15-aprelda qaraldi
4. <https://xabar.uz/tahlil/yana-pedofiliya-bunday-odamlar-tuzaladimi>
5. Ismoilov N.T. Voyaga yetmaganlar jinoyatlarini individual oldini olish muammolari: Yurid. fan. nomz. ... dis. – T., 2007. – B. 73.
6. Otajonov A.A. Jinoyatga daxldorlik: jinoyat-huquqiy va kriminologik jihatlar: Yurid. fan.nomz. ... dis. – T., 2009. – B. 90.
7. Taxirov F. O'zbekiston Respublikasi qonuni bo'yicha jinsiy jinoyatlar uchun javobgarlik muammolari: Yurid. fan. d-ri ... dis. – T., 2007. – B. 99.
8. Kriminologiya. Umumiy qism: IIV oliy ta'lim muassasalari uchun darslik / Mualliflar jamoasi. — T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2023. — B. 189.
9. Umirzakov B.A. Voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining kriminologik tavsifi va oldini olishni takomillashtirish: Yurid. fan. d-ri (PhD) ... dis. – T., 2019. – B.48.
10. Kriminologiya. Umumiy qism: IIV oliy ta'lim muassasalari uchun darslik / Mualliflar jamoasi. — T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2023. — B. 205.
11. Жигаров Е.С., Петухов В.И. Философия. Криминология. – М.: Олма-Прес, 2006. – С. 562.